



O‘SPIRINLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Otabayeva Fotima Kamol qizi
Urganch davlat pedagogika instituti
“Umumiy psixologiya va boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi”
kafedrasi o‘qituvchi -stajyori
90 431 14 05
otabaevafotimajon@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘spirinlik davri haqida olimlarning fikrlari , Ilk ospirinlik va ospirinlik davriga ta’rif bu davrda bo‘ladigan psixologik o‘zgarishlar,o‘spirinlik davrida yetakchi faoliyat , o‘z-o‘zini anglash,kasb-hunarga yo‘naltirish va kasb tanlash muammolari muloqotning ahamiyati jismoniy va kognitiv rivojlanish haqida haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar; O‘spirinlik, kasbiy faoliyat, yetakchi faoliyat do‘stlik,muloqot,jismoniy va intellektual rivojlanish.

Аннотация. В этой статье представлены мнения ученых о подростковом возрасте, раннем аспиринге и определение периода аспиринга психологические изменения, происходящие в этот период , ведущая деятельность в подростковом возрасте, проблемы самосознания, профориентации и выбора профессии важность общения информации о физическом и когнитивном развитии.

Ключевые слова; подростковый возраст, профессиональная деятельность, ведущая деятельность дружба, общение, физическое и интеллектуальное развитие.

Annotation. This article presents the opinions of scientists about adolescence , the definition of the period of early aspiration and aspiration psychological changes that occur during this period, the problems of leading activity , self-awareness, vocational guidance and career selection in adolescence the importance of communication about physical and cognitive development.

Keywords; adolescence, professional activity, leading activity, friendship, communication, physical and intellectual development.

KIRISH

Yoshlarning jamiyatda tutgan o‘rni, ularning mavqeい, ular egallaydigan bilimlarning hajmi va bir qator omillar, ijtimoiy sharoitlarga bog‘liqdir. Ilk o‘spirining psixik rivojlanishini harakatga keltruvchi kuch jamoat tashkilotlari, məktəb jamoasi, ta‘lim jamoasiga qo‘yadigan talablar darajasining oshishi bilan u erishgan psixik komolat o‘rtasidagi ziddiyatlardir, turli

qaramaqarshiliklar,ziddiyatlar ahloqiy aqliy, estitik jihatdan tez o`sishi orqali bartaraf qilinadi. Ilk o‘spirinlik ongidagi takchi omil yuqori sinf o‘quvchilarning faoliyating xususiyati mohiyati va mazmunidagi tub burilishdir, o‘spirin yoshidagi o‘quvchilarning oldiga qo‘ygan maqsadlardan biri bu ularning kelajakda qaysi kasbni egallashi kelajakda kim bo`lsam ekan degan savollar ularni qiyaydi, bu borada ularga kasb tanlashda, Resbuplikamizda amalga oshirlayotgan tub islohatlarning yaratuvchisi sifatida shakillanayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish, ularning zamon talablari darajasida bilim olishlari, shaxs sifatida kamol topishi, kasb xunar sirlarini o‘rganishi va kundalik turmush yumishlarini hal etishga tayyorlab borish masalasi asosiy muammolar tariqasida ta’lim jarayoning asosiy vazifalardan biri sifatida bo‘lib kelmoqda, kasbga yo`naltrish ijtimoiy balki psixologik muammo hamdir bugungi kunda kasb tanlash turli xil nazarlar asosida qarash mumkin bo‘lgan jarayondir.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYASI

15 yoshdan 17-18 yoshgacha bo‘lgan davr -ilk o‘spirinlikdir. O‘spirinlik davri -bu odamning fuqaro sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy jihatdan yetilishi, o‘z taqdirini o‘zi belgilashi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish, fuqaro va vatanparvarning ma’naviy sifatlari tarkib topadigan davr hisoblanadi.

Ilk o‘spirinlik davrining jismoniy rivojlanish haqida aytadigan bo‘lsak, bo‘yning o‘sishi o‘spirin qizlarda 15-16 yoshgacha, o‘g‘il bolalarda esa 17-18 yoshgacha davom etadi. Bu davrda muskullar kuchi tez o‘sadi. Masalan, 18 yoshli bola muskul kuchi 12 yoshli bolaga nisbatan 2 baravar ko‘p bo‘ladi. Bu davrda jismoniy taraqqiyot, asosan, to‘g‘ri ovqatlanish rejimiga va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Ilk o‘siprnlik eng muhim psixologik xususiyati – o‘z ichki dunyosini kashf etadilar. Ular o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini anglaydilar, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini qiyosiy baholay oladilar. Ularning yana bir xususiyati murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch vijdon hissi, o‘z qadr-qimmatini sezish kabi xislatlardir. Umuman, o‘z-o‘zini anglash - quvonchli, hayajonli hodisadir. Ayni vaqtida bu his dramatik xavotirli kechinmalarga ham sabab bo`lishi mumkin. O‘siprin kechinmalarida asosiy o‘rinni kelajak haqidagi o‘ylar egallaydi. O‘siprinlar uchun yana bir muhim kechinma o‘zining tashqi ko‘rinishi haqidagi o‘ylardir. Juda ko‘pchilik o‘siprinlar o‘z tashqi ko‘rinishini o‘zgartirishni xohlagan bo‘ladilar. Tashqi ko‘rinishlaridagi ozgina kamchilik ular uchun “fojia” darajasiga ko‘tariladi. Umuman, refleksiyaning o‘sishi, o‘z “men”iga qiziqishning ortishi barcha o‘siprinlarga xos xususiyat. Lekin bu kechinmalar shaxs rivojlanishining qiyinchiliklari bo‘lib, o‘tkinchi xarakterga ega, umuman olganda o‘siprinlik juda baxtli davr sifatida esda qoladi.O‘siprinlarda refleksiyaning kechishi ko‘pgina ijtimoiy, individual-tipologik,biografik omillarga bog‘liqdir.

O‘siprinlik davrida kuzatiladigan ijtimoiy psixologik,fiziologik o‘zgarishlar borasida ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan ,L.I.Bojovich, D.B.Elkonin, A.N.Leontev, D.I.Feldshteyn, E.N.Sattarov rahbarligida S.N.Jo‘rayeva, J.S.Iskenderov, O.U.Avlayevlar tomonidan o‘rganilgan.

L.I.Bojovich rus psixologlaridan bo‘lib,ilk o‘spirinlik davrining shaxs motivatsion sohasi rivojlanishiga kata ahamiyat beradi: o‘quvchilarning hayotda o‘z o‘rnini va ichki pozitsiyasini aniqlashi, dunyoqarashning shakllanishi va uning bilish faoliyatiga, o‘z-o‘zini anglashga va axloqiy ongga ta’siri nazarda tutiladi. Ilk o‘spirinlik davri “kamolot bo‘sag‘asi” deb ta’riflanadi. Bu davrdagi insonlar mustaqil hayot sohasida yaqin istiqbolga ega, o‘zlarining hayot yo‘llarini belgilashga, keljakdagi mehnat faoliyatlarining aniq istiqbollarini belgilashga, o‘zlarining kelgusi ixtisoslarini tanlashga qatiy kirishadilar.Bu davrda kasb-hunarga oid qiziqishlar tarkib topadi va yanada barqarorroq bo‘lib qoladi, yigit va qizlar o‘z keljaklari haqida jiddiy o‘ylaydilar.D.B.Elkoninning va Rus psixologlaridan A.N.Leontevning ta’kidlashicha, o‘quv kasbiy faoliyat o‘spirinlik davrida yetakchi faoliyat hisoblanadi. D.I.Feldshteynning fikricha esa, o‘spirinlik davrida o‘qish va mehnat asosiy faoliyat turlari sifatida shaxsning taraqqiyotini belgilaydi. Boshqa psixologlar ta’kidlashicha, kasbiy o‘z-o‘zini belgilash ilk o‘spirinlik davrida yetakchi faoliyat sifatida ko‘rsatadilar. I.V.Dubrovina bu holatga quyidagicha, maktabni tugatgan paytda kasbiy o‘z-o‘zini belgilash haqida gapirish erta, chunki unda faqat istak, haqiqatda amalga oshmagan keljak rejalar mavjud bo‘ladi deya anqlik kiritadi.Minglab kasblar bor,ammo muayyan mehnat turiga individual moyillik bilan unga bo‘lgan qobiliyat va uning ijtimoiy ahamiyatiga yuqori baho berish birga qo‘silib ketgan vaqtdagina chin yurakdan tanlangan kasbgina kishiga ma’naviy qoniqish va jamiyatga foyda keltiradi. Kasbga yo‘naltirish bu- shaxsning ijtimoiy taqdirini belgilashning tarkibiy bir qismidir. Kasb tanlash - hayot mazmuni haqidagi o‘ylari va shaxsiy «Men» tabiatini bilan mos kelgandagina muvaffaqiyatli hisoblanadi.

Prezidentimizning “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘sishcha doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga binoan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinflari o‘quvchilariga kasbiy ta’lim berishga ixtisoslashgan o‘quvishlab chiqarish majmualari (O‘ICHM) yoshlarimizni kasbga o‘rgatish vazifasini lozim darajada bajarmaganligi sababli haqli ravishda tugatilmoqda.Prezidentimizning “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘sishcha doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga binoan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinflari o‘quvchilariga kasbiy ta’lim berishga ixtisoslashgan o‘quv-ishlab chiqarish majmualari (O‘ICHM) yoshlarimizni kasbga o‘rgatish vazifasini lozim darajada bajarmaganligi sababli haqli ravishda tugatilmoqda.Har qanday kasbiy ko‘nikma va malakalarning o‘sishi, avvalo, o‘siprin intellektining umumiy rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. SHuning uchun ham bu davrdagi o‘siprinlar intellektining rivojlanishiga alohida e’tibor berish lozim. Bu yoshdagи bolalarga uchun muloqotga kirishish ehtiyojining mavjudligi ham juda muhim, lekin u etakchi emas, faqat tanlagan kasb va yo‘nalishlari bo‘yicha mashg‘ul bo‘lmagan o‘siprinlargina ko‘proq tengdoshlari bilan muloqotda bo‘lishga ehtiyoj sezadilar. .[1]

E.N.Sattarov rahbarligida S.N.Jo‘rayeva tomonidan talaba shaxsiga kasbiy shakllanish ta’sirining psixologik jihatlari o‘rganildi.[2] Tadqiqotda shaxsning kasbiy faoliyatga mutanosibligini belgilovchi psixologik xususiyat va omillar aniqlandi, talabalarning oliy o‘quv

yurtiga kirishida ta’lim yo‘nalishlarini tanlashlariga sabab bo‘luvchi psixologik omillar aniqlandi, shaxs xususiyatlarining kasbiy faoliyatga mutanosibligini ta’minlashga xizmat qiluvchi kasbiy motivlar, ustanovkalar va yo‘nalganlikning ahamiyati aniqlangan. A.X.Ubaydullayev tomonidan «Yoshlarni kasbga yo‘llashda aksidental qobiliyatlarni diagnostikasi» nomli ilmiy tadqiqotida «xavf-xatar hissi» va «xavfsiz psixomotorika» kabi tizimlarni o‘z ichiga olgan aksidental qobiliyatlar konsepsiyasining nazariy va amaliy ahamiyatliligi ko‘rsatilgan.[3]

Hayot faoliyati kengaygan sari, o‘spirin yoshlarda ijtimoiy rollar ham miqdor ham sifat tomonidan ham o‘zgaradi. 16 yoshda pasport oladi, 18 yoshidan faol saylash huquqiga va oila qurish imkoniyatiga ega bo‘lishi bunga misol qilishimiz mumkin.

Mazkur davrida muloqotga bo‘lgan ehtiyoj kuchayadi, muloqot doirasi kengayadi, chuqurlashadi indivi- duallashadi. O‘spirinlik yoshida o‘quvchilarda o‘rtoqlik hissining rivoj topishi xarakterlidir. Rossiya psixologlari I.V.Straxov bilan A.L.Shnirman tadqiqotlarining natijalariga ko‘ra, o‘spirinlik yoshidagi do‘slik, o‘smirlilik yoshidagi bolalarning do‘sligidan ba’zi bir xususiyatlari bilan tubdan farq qiladi. Birinchidan, o‘spirinlarda do‘slik motivlari ancha chuqur va talablari yuqori bo‘ladi. bular: oshkoraliq, o‘zaro ishonch, talabchanlik, sadoqat, bir- biriga har doimyordam ko‘rsatish, kamchiliklarni bartaraf qilish, do‘stiga yordam berish, o‘zaro hurmat, bir-birini tushunish va hokazo. Ikkinchidan, do‘slik hislari ancha sermazmun bo‘ladi va qiziqishlar doirasi kengayadi. Uchinchidan, do‘slik emotsional bo‘lib, do‘sti kechirayotgan hislarga javob bera olish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. O‘spirinlik yoshidagi do‘slik ko‘pincha umr bo‘yi davom etadi. Ilk o‘spirinlik davridagi do‘slikning psixologik qonuniyatları o‘zining barqarorligi bilan ajralib turadi [4]

O‘spirin har bir ishda etakchi bo‘lish istagi bilan yashaydi. Lekin har doim ham uddalay olmaydi. L.A.Umanskiy fikricha, o‘spirin quydagi xislatlarga ega bo‘lishi kerak:

a) axloqiy xislatlar- tashabbuskorlik, jamoatchilik, samimiylilik, faollik, mehnatsevarlik;

b) irodaviy xislatlar- matonat, qat’iyat, mustaqillik, tashabbuskorlik, batartiblik, intizomlilik;

v) emotsional xislatlar- xushchakchaklik, tetiklik, xazilkashlik va yangilikni xis etish, o‘z kuchiga ishonch, optimizm va boshqalar. O‘spirinlarda mavjud bo‘lgan yana bir muhim xislatlardan biri ularda yuksak darajadagi do‘slik, o‘rtoqlik, ulfatchilik, muxabbatning vujudga kelishidir. Shu sifatlarning qay darajada shakllanganligi tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish mezoni hisoblanadi.[5]

O‘zbekistonda E.G‘.G‘oziyev rahbarligida J.S.Iskenderov tomonidan pedagogika kolleji o‘quvchilarida xarakterning intellektual va irodaviy xususiyatlari shakllanishini baholashda test-reyting tizimidan foydalanishning samarali yo‘llari ishlab chiqildi.[6] Pedagogika kolleji o‘quvchilarida xarakterning intellektual va irodaviy xususiyatlarining shakllanish jarayoni shaxsnинг umumiyligi yo‘nalganligi, kasbiy ustanovkaları, kasbiy tasavvurları va imkoniyatlari mutanosibligi omillar asosiga qurilishi tadqiqot davomida dalillandi. O‘spirinlar xulq-atvori

buzilishiga olib keladigan sabablarning psixologik xususiyatlari Z.F.Kamaletdinova ishlarida yoritilgan.[7]

Muallif olib borgan tadqiqotlari natijasida deviant xulqning vujudga kelishi g‘oyaviy-mazmuniy xarakterga ega ekanligini ta’kidlab, uning vujudga kelishiga sabab boluvchi ikki omilni ko‘rsatib o‘tadi: birinchisi, o‘quvchining doimiy ravishda qoniqarsiz baho olishi natijasida diqqati, intellektual tushuncha bilan bogliqlik harakatlari pasayib ketadi. Ikkinci holatda esa ota-onalarining o‘z bolalariga nisbatan mehrsiz va shafqatsizligi oqibatida talablarga nisbatan tushunmaslik mexanizmi kuchga kiradi. Bu yoshdagi bolalar uchun muloqotga kirishish ehtiyojining mavjudligi ham juda muhim, lekin u yetakchi emas, faqat tanlagan kasb va yo‘nalishlari bo‘yicha mashg‘ul bo‘lmagan o‘spirinlargina ko‘proq tengdoshlari bilan muloqotda bolishga ehtiyoj sezadilar.

Respublikamiz psixologlari tomonidan ilk o‘spirinlar shaxsining psixologik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlagan qator tadqiqotlar o‘tkazilgan. Jumladan, M.G.Davletshin rahbarligida M.T.Isakova tomonidan o‘tkazilgan «Yuqori sinf o‘quvchilari xarakter xislatlarining shakllanishida milliy an’analarning ta’siri» mavzusida ilmiy izlanish olib borilgan [8]. Tadqiqotda o‘zbek etnik guruhiga xos bo‘lgan yuqori sinf o‘quvchilari xarakter xislatlarining etnopsixologik xususiyatlari, ya’ni Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, uyatchanlik, kamtarlik kabi xislatlarning shakllanishiga milliy an’analarning ta’siri o‘rganilgan.

Shunday tadqiqotlar sirasiga A.Jabborov rahbarligida o‘tkazilgan O.U.Avlayevning tayanch-harakat a’zolari buzilgan ilk o‘spirinlaming shaxs xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotini keltirish mumkin[9] Tadqiqot natijasida muallif quyidagilarni aniqlagan: tayanch-harakat a’zolari buzilgan kontingenqlar shaxsining motivatsiyalari mazkur yoshdagi sog‘lom tengdoshlari singari bir xildagi munosabatni namoyon qilganiga qaramay ularning imkoniyatlari shaxslilik pozitsiyasidan cheklanib qoladi. Ichki motiv, bilish motivi, musobaqalashuv motivlaridagi natijalar nisbiy ma’noda tenglikni ifodalasa-da, ammo ularning o‘zini o‘zi hurmatlashi sog‘lom tengdoshlariga qaraganda ancha past ko‘rsatkichli motiv darajasini namoyon etadi.

Kognitivistik yo‘nalishning asoschilari qatoriga J.Piaje,Dj.Kelli, L.Kolberg, D.Bromley, Dj.Birrer, A.Vallon, G.Grimm va boshqalarni kiritish mumkin. Ilk o‘spirinlarning bilish jarayonlari shunday darajaga yetadiki, kattalar bajaradigan barcha aqliy ishlarni bajarishga amaliy jihatdan tayyor bo‘ladilar. Ularning bilish jarayonlari murakkab va egiluvchan bo‘lib boradi. U lar bu yoshga kelib jiddiy ishlarga ko‘p vaqtlarini ajrata boshlaydilar, dam olish va o‘yin-kulguga juda kam vaqt ajratadilar.Ularning barcha bilish jarayonlari, jumladan, xayol, xotira, nutq, tafakkur rivojlanadi.

Ilk o‘spirinlik yoshidagi o‘quvchilardanazariy tafakkurni shakllantirishda to‘garak va mashg‘ulotlar muhim rol o‘ynaydi. O‘spirin o‘quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirish uchun o‘qituvchilar, sinf rahbarlaring siymolari muxim rol o‘ynaydi.[10]

Qiziqishlarning differensiyalashganligi diqqatning tanlovchanligini, ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqatning roli ancha ortishini belgilab beradi. Ilk o‘sirinlarda ixtiyoriy diqqatdan keyingidiqqat bilan bir qatorda ixtiyoriy diqqatning ham aham iyati ortadiki, ular o‘quv materiali bilan bevosita qiziqmasdan, o ‘rganilayotgan hodisalarining hayotiy aham iyatini tushunib, unga diqqatlarini qaratadilar. Diqqatni ko‘chirish va taqsim lash qobiliyati sezilarli ravishda rivojlanib, takom illashib boradi. Xususan, diqqatni taqsimlash bir vaqtning o‘zida o‘qituvchining tushuntirgan narsalarini ham tinglash, ham yozib borish, o‘z javobining mazmunini kuzatib borish ahoratining shakllanishida o‘z aksini topadi. Ilk o‘sirinlar o‘quv ishlari jarayonida o‘zlariga ta ’sir qiladigan chalg‘ituvchi narsalarga o‘smirlardan ko‘ra ko’proq qarshi turishga qobildirlar.

Shunday qilib, o‘sirinlik davri 16-23 yoshni o‘z ichiga olib, bu darvr muammolari bilan ko‘plab olimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar 16-18 yosh ilk o‘sirinlik, 18-23 yoshlari esa o‘sirinlik deb ataladi. Bu davrda kasbiy o‘z-o‘zini belgilash yetakchi faoliyat hisoblanadi. E’tiqod va dunyoqarash bilan bir qatorda, axloqiy ideallar bu davrda paydo bo‘lgan yangi psixologik tuzilmalar hisoblanadi.Bu davrda kasb tanlashga katta e’tibor qaratiladi.Kasb tanlaganda inson o‘zining qiziqishlari, muloqot darajasini, individual psixologik xususiyatlari ya’ni qiziqishlari,temperamenti,qobiliyatlarini inobatga olsagina muvaffaqitli davom ettira oladi , o‘z imkoniyatlari va qiziqishlarini inobatga olmasa, kelajakda yaxshi mutaxasis bolaolmaydi va natijada inson hayotida bo‘shliq paydo bo‘la boshlaydi shu tariqa jamiyatda uyushmagan yoshlар paydo bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘oziev E.E. Psixologiya. Toshkent, 2008[1]

2 Jo‘rayeva S.N. Talaba shaxsiga kasbiy shakllanish ta’sirining psixologik jihatlari. Psixol.f.n....dis.. - T.: TD PU , 2010. - 133 b. [2]

3.Убайдуллаев А.Х. Диагносика аксидентальных способностей в профориентационной работе среди молодежи. — Т. Автореф....к.пс.н.1994.-19 с. [3]

.4Z.T.Nishanova,N.G .Kamilova ,D.U.Abdullayev ,M.X.Xolnazarova “Rivojlanish psixologiyasi .Pedagogik psixologiya” T..2017 .300b [4]

5 Asomova R.Z. Kasb tanlash motivasiyasi va uning dinamikasi. Psix.f.n.....dis.-T., 2002. -137 b. [5]

6. Iskenderov J.S. Pedagogika kolleji o‘quvchilarida xarakterning intellektual va irodaviy xususiyatlarini shakllantirish. Ps.f.n ...avtoref. -T . 2009.-26 b. [6]

7.Камалетдинова.З.Ф.Психологические особенности мотивацион носмысловой сферы старшеклассников с отклоняющимся поведением. Автореф.....к.пс.н.Т.1993.-19c.[7]

8 Исакова.М.Т.Влияние национальных традиций на формирование черт характера старшеклассников.Автореф....к..пс.н.Т.1997.-17c[8]

9.Avlayev.O.U. “Tayanch harakat a’zolari buzilgan ilk o‘sirinlar shaxsining psixologik xususiyatlari”. Ps.f.n...avtoref.- T.2006.-23b.403[9]

10.Klimov E. A. Puti v professionalizm. -Moskva Filinta, 2003. [10]